

Date: 3rd February-2026

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA SO‘Z SAN‘ATI
HAQIDAGI QARASHLARNING AKS ETISHI

Hasanova Aziza Raxatjanovna
ummusolihahasanova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida so‘z san‘ati, nutq madaniyati va til odobiga oid qarashlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda so‘zning ijtimoiy, axloqiy va estetik vazifalari badiiy tasvir vositalari orqali yoritilgani ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot jarayonida asarning til odobiga bag‘ishlangan boblari hamda ularda qo‘llangan tashbih, tazod, parallelizm, variatsiya va nido kabi san‘atlar tahlil qilinadi. Natijada Yusuf Xos Hojib so‘zni jamiyatni tartibga soluvchi, shaxs ma’naviyatini shakllantiruvchi va axloqiy tarbiya beruvchi muhim vosita sifatida talqin etgani aniqlanadi.
Kalit so‘zlar: Qutadg‘u bilig, Yusuf Xos Hojib, so‘z san‘ati, til odobi, nutq madaniyati, badiiy san‘atlar.

Abstract: This thesis analyzes Yusuf Khos Hajib’s views on the art of speech, speech culture, and linguistic etiquette as reflected in his work Qutadghu Bilig. The study demonstrates that speech in the text is regarded not merely as a means of communication, but as an essential moral, social, and philosophical instrument. Particular attention is paid to stylistic devices such as metaphor, antithesis, parallelism, variation, and rhetorical address, which contribute to emphasizing the power, responsibility, and ethical significance of words. The findings of the study reveal that Yusuf Khos Hajib considered speech a vital means of moral education, social regulation, and the cultivation of individual character.

Keywords: Qutadghu Bilig, Yusuf Khos Hajib, art of speech, speech etiquette, speech culture, stylistic devices.

Аннотация: В данной тезис анализируются взгляды Юсуфа Хос Хаджиба на искусство слова, культуру речи и речевой этикет в произведении «Кутадгу билиг». Показано, что слово в произведении рассматривается не только как средство общения, но и как важный социально-нравственный инструмент. Особое внимание уделяется художественным средствам — сравнению, антитезе, параллелизму, вариации и риторическому обращению — которые способствуют раскрытию силы и ответственности слова. В результате исследования выявлено, что Юсуф Хос Хаджиб придавал слову воспитательное, философское и социальное значение.

Ключевые слова: «Кутадгу билиг», Юсуф Хос Хаджиб, искусство слова, речевой этикет, культура речи, художественные средства.

Kirish. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari o‘rta asr turkiy adabiyoti va ijtimoiy-falsafiy tafakkurining yuksak namunasi hisoblanadi. Asarda davlat boshqaruvi, axloqiy me‘yorlar va insoniy fazilatlar bilan bir qatorda, so‘z san‘ati va nutq madaniyatiga oid muhim qarashlar ham ilgari surilgan. Muallif so‘zga nafaqat aloqa vositasi sifatida, balki jamiyat hayotiga ta’sir ko‘rsatuvchi ma’naviy kuch sifatida yondashadi.



Date: 3rd February-2026

“Qutadg‘u bilig”da so‘z inson shaxsiyatini belgilovchi omil, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida talqin etiladi. Til odobi va chiroyli nutq madaniyati shaxsiy kamolot hamda jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida baholanadi. Shu jihatdan asarda so‘z mas‘uliyati, mulohazali nutq va sukutning o‘rni alohida ta’kidlanadi.

Ushbu tezisning asosiy maqsadi — “Qutadg‘u bilig” asarida so‘z san‘ati haqidagi qarashlarni aniqlash hamda ularning badiiy tasvir vositalari orqali qanday ifodalanganini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, matnshunoslik va lingvopoetik metodlardan foydalanildi. Asarning yettinchi va yigirma to‘rtinchi boblari, shuningdek, boshqa boblarda uchraydigan til odobiga oid baytlar tanlab olinib, ularning mazmuniy va badiiy xususiyatlari o‘rganildi. Baytlarda qo‘llangan badiiy san‘atlar misollar asosida tahlil qilinib, o‘rta asr turkiy tilining ifodaviy imkoniyatlari e‘tiborga olindi.

Natijalar. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Qutadg‘u bilig” asarida so‘z san‘ati va til odobi markaziy g‘oyalardan biri sifatida ilgari surilgan. Xususan, yettinchi bobda (158–188-baytlar) tilning fazilatlarini, foydasi va zararlari yoritilib, uning inson hayotidagi ahamiyati ochib beriladi. Yigirma to‘rtinchi bobda (941–1030-baytlar) esa so‘zlash va jim turish masalasi muhokama qilinib, muloqot madaniyatining muhim jihatlari asoslanadi.

Asarda so‘zning qudrati badiiy tasvir vositalari orqali ta’sirchan ifodalangan. Masalan, tilning arslonga o‘xshatilishi uning kuchi va xavfliligini ramziy tarzda ifodalasa, tazod san‘ati orqali so‘zning insonni yuksaltirishi yoki tanazzulga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Parallelizm va tarse’ san‘ati baytlarning ohangdorligini kuchaytirib, g‘oyaning esda qolarli bo‘lishiga xizmat qiladi. Variatsiya esa bir fikrning turli shakllarda takrorlanishi orqali uning mazmuniy ahamiyatini oshiradi.

Yusuf Xos Hojib qarashlariga ko‘ra, so‘z san‘ati inson tafakkuri va ichki dunyosining ifodasidir. Asarda Kuntug‘di, Oyto‘ldi va Ozg‘urmish obrazlari orqali nutqdagi muloyimlik, ehtiyotkorlik va rostgo‘ylik kabi til odobiga oid fazilatlar yuksak badiiy darajada namoyon bo‘ladi. Bu obrazlar muloqoti orqali muallif so‘zning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatini ochib beradi. Shuningdek, asarda turkiy tilning boy ifodaviy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanilgan[4,11]. Sodda, ammo chuqur mazmunli nutq orqali axloqiy qadriyatlar milliy estetik tafakkur bilan uyg‘unlashgan holda tasvirlanadi. Bu holat “Qutadg‘u bilig”ning nafaqat adabiy, balki lingvopoetik ahamiyatini ham oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida so‘z san‘ati va til odobini muhim axloqiy hamda ijtimoiy qadriyat sifatida talqin etadi. Muallif so‘zni shaxs ma’naviyatini shakllantirish, jamiyatni boshqarish va ijtimoiy muvozanatni ta’minlash vositasi sifatida baholaydi[4,8]. Asarda qo‘llangan badiiy tasvir vositalari so‘zning kuchi va mas‘uliyatini teran anglashga xizmat qiladi. Shu bois “Qutadg‘u bilig” o‘z davri uchungina emas, bugungi nutq madaniyati va axloqiy tarbiya masalalarida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Date: 3rd February-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Исҳоқов. Ё. “Сўз санъати сўзлиги” – Т.: Зарқалам, 2006. –126 б.
2. Mehmet B. “Kutadgu Bilig‘de Dil ve Üslup: Ahlaki–Estetik Normlar.” History Studies International Journal of History, 2024(2), – S. 95–119.
3. Содиқов Қ. “Қутадғу билиг” сўзлиги [Матн]:илмий–оммабоп нашр. – Тошкент: Akademnashr, 2020.– 304 б.
4. Sodiqov Q. Qoraxoniylar davri turkiy yozma yodgorliklari.– Toshkent. Akademnashr, 2025. – 360 b.
5. Sodiqov Q. O‘zbek mumtoz adabiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2022. –320 b.
6. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори.” –Тошкент: Bayoz, 2013.– 115 б.
7. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари. – Тошкент, 1991.– 458 б.
8. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг” (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Каримов Қ. – Тошкент: “Фан”, 1971.– 964 б.

